

“OTA-ONA QARAMOG’ISIZ QOLGAN, OG’IR HAYOTIY VAZIYATGA TUSHGAN BOLALAR BILAN IJTIMOYIY ISHNING HUQUQIY ASOSLARI”.

Tolibov Bekzod Xakimovich

Farg’ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasi mudiri, Sotsiologiya fanlar bo’yicha falsafa doktori PhD

Xoshimova Mohinur Baxtiyor qizi.

Farg’ona davlat universiteti Tarix fakulteti Ijtimoiy ish yo’nalishi 4 bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ijtimoiy o’zgarishlar davrida, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar bilan ijtimoiy va amaliy ishlarni olib borish juda muhim sanaladi. Bolalarning ijtimoiy himoyasi davlat, ijtimoiy siyosatining ustuvor yo’nalishi bo’lib, butun mamlakatning kelajagi uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog’liq. Maqolada, so’ngi yillarda yurtimizda yetim bolalar (ijtimoiy yetim bolalar), ota-ona qaramog’isiz qolgan bolalar bilan, ijtimoiy – profilaktik ishlarning pirinsipal jihatdan yangi tizimlar joriy etilayotgani ilmiy manbalardan foydalanilgan holda yoritilgan. Vasiylik va homiylik, oilaviy bolalar uylarining mohiyati ochib berilgan. Ota-ona qaramog’isiz qolgan, qiyin hayotiv vaziyatga tushib qolgan bolalar bilan ishlash texnologiyalari yoritilgan.*

Kalit so’zlari: *bola, oila, bolalar tarbiyasi, ijtimoiy ish xodimi, ijtimoiy yetimlik, vasiylik, homiylik, ijtimoiy himoya, bolaning qonuniy vakillari, xavf, texnologiya, ijtimoiy rehabilitatsiya, moslashtirish.*

KIRISH QISMI

“Biz uchun jamiyatda begona bola yo’q va bo’lmasligi kerak. Jamiyatimizdagi barcha bolalar, O’zbekistonning bolalaridir.”

Shavkat Mirziyoyev, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Zamonaviy dunyoda jahon hamjamiyati bolalarni ijtimoiy himoya qilish, bolalik dunyosini yaxshilashga qaratilgan keng miqiyosdagi samarali tadbirlarni faol amalga oshirmoqdalar. Biroq, oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilishning samaraliy texnologiyalarini joriy qilish jarayonlarida bir qator konseptual va amaliy muammolar ham kuzatilmoqda. Bugungi kunda bunday masalalarni hal etishda, ijtimoiy soha mutaxassislariga ham ehtiyoj tug’ilmoqda. Yurtimizda yangi soha deb e’tirof etilayotgan, biroq turli davlatlar tajribasidan yaxshigina natijalar bilan, o’tgan ijtimoiy ish xodimlarning ishlash obyektlaridan bir ham aynan yordamga muhtoj bolalar hisoblanadi. Bunday bolalar bilan ishlashda, xodimdan kompetentlik talab etiladi. Ota-ona qaramog’isiz qolgan, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar bilan,

ishlashda quydagilarga e'tibor berish o'rinli bo'ladi. Eng avvalo ular tushib qolgan vaziyatning qanchalik salbiy, xavfli ekanligi, bolaning yosh xususiyatlari va bunday vaziyatga tushib qolgan bolaning ruhiy, jismoniy holatlarini baholab olish juda muhim sanaladi. Oilalarda o'sayotgan bolalar turli yosh davrlarni, boshlaridan o'tkazadilar. Bu bosqichlarda ham bolalar turli qiyinchiliklarga duch kelishlari bor gap. Yoki oiladagi bolalarga bo'lgan nomunosib zo'ravonlik holatlaridan ham bolalar qiyin vaziyatlarga tushib qoladilar. Yurtimizda "Oila" institutiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq shunga qaramay, oilalardagi nizoliy va zo'ravonlik vaziyatlari bolalarga nisbatan ham uchrab qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 2 fevralidagi, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹, PF-5325 son Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va hududiy boshqarmalari tuman, shahar bo'limlari tashkil etildi. Bugungi kunda "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan 21 ming 200 dan ziyod jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari qabul qilinib, ularning muammolariga ijobiy yechim topilgan. Oila mustahkamligini ta'minlash avvalo sog'lom, baquvvat va barkamol avlodni tarbiyalashga bog'liq. Binobarin jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti yoshlarga, ayollarga va oilalarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shu o'rinda, oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ham ijtimoiy holatlarini o'rganish, yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni ximoya qilish masalalari ham dolzarb bo'lib, bormoqda. Har bir bolalar eng avvalo, oilada ijtimoiylashadilar. Oila deb atalgan mikro-muhit, ularning dastlabki ijtimoiylashuv maskani sanaladi. Bu jarayonda, oilada ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda o'z vazifalarni to'laqonli bajarsalar, bolalarning ruhiy va ijtimoiy holatlari ham barqaror rivojlanadi. Biroq ijtimoiy o'zgarishlar davrida, oilalarda bolalarga bo'lgan munosabatlar talab darajasida emas. Ayrim ota-onalar bu mas'uliyatli jarayonlarni bog'cha, maktablarga yuklamodalar, bu esa xato hisoblanadi. Bolalar 3 yoshgacha o'z ota-onalari bag'rida hissiy to'yingan holda ulg'ayishlari kerak. Rivojlanishning bu dastlabki uzilishi, kattalarga bilinmasligi mumkin biroq, bolalar uchun bu holat katta bir ruhiy og'riqlarni berishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida, ijtimoiy ish mutaxassisi eng avvalo bolaning oilasi bilan tanishib oilshi lozim. Oilani birlamchi va majmuaviy baholay olishi kerak. Oiladagi qaysi noto'g'ri ijtimoiy qadam, bolani yetimlik holatiga yoki ijtimoiy yetimlik vaziyatiga tushirib qo'yayotganligi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz.2019 yil.

haqida, xulosalarga kelib olishi juda zarur. Albatta bunday ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida, bolaning yosh xususiyatlari va ular tushib qolgan ijtimoiy vaziyatlarga ham e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy ish xodimi bunday vaziyatlarda, muammoga ko'mpleks yondashadi. Hech bir vaziyatni ko'zdan qochirmaydi. Natija uchun harakat qiladi.

Asosiy qism: Aholining maxsus davlat va jamot qaramog'iga muhtoj toifalari orasida yetim bolalar, ijtimoiy yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar alohida o'rin tutadi. Ta'kidlash joyiz, rivojlangan davlatlar tajribasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi bir vaqtning o'zida bolalarga yordam berishga va biologik oilani muvaffaqiyatli rehabilitatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Avvalo, yuqoridagi tushunchalar mohiyatiga to'xtalaib o'tsak. Demak,

Yetim bola bu - otasi ham onasi ham vafot etgan, yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola.

Ijtimoiy yetimlik bu - ota-qaramog'isiz qolgan bolalar, shu jumladan turli sabablarga ko'ra ota-onasi ularni tashlab ketgan yoki ota-onalik huquqlaridan mahrum bo'lgan va to'liq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bolalar hisoblanadi².

Ijtimoiy yetimlik atamasi, XX asrning 90 yillarida ishlatila boshlandi. Demak, ijtimoiy yetimlik hayotimizda qadimdan davom etib kelayotgan ijtimoiy fenomendir. Bu ijtimoiy jarayon negizida, bolalarni ota-ona qaramog'isiz qolishlari va shu asnoda qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolishlari yotadi. Ota-ona qaramog'isiz qolish, ta'rifi shuni ko'rsatadiki, har bir oilada ota-ona o'z burchlarini bajarish uchun yetarli moddiy-moilyaviy, ma'naviy va umumiy ijtimoiy sharoitlarning yo'qligidan, ota-onalar o'z masuliyatlarini, mehr-muhabbatlarini, rahim-shafqat va g'am chekish tuyg'ularining defitsiti sharoitida farzand dunyoga keltirib, so'ngra ularni turli sabablarga ko'ra tashlab ketmoqdalar. Bugungi kunda bunday ijtimoiy salbiy holatlar, ko'zga tashlanmoqda. Ijtimoiy yetim bolalar bilan, ishlash jarayonida bolalarning nafaqat huquqiy balkiy ruhiy jihatdan ham yordam ko'rsatish tizimiga alohida e'tibor berish kerak. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda, ko'pincha jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolish holatlari kuzatiladi. Bunday bolalarda ota-onaning mehri yo'qligi tufayli, atrofdagi odamlar tomonidan tan oldirish (egoist)lik xarakteri ham rivojlanadi. Umumiy qilib aytganda, oiladan tashqarida yashovchi bolalar o'zlarini qabul qilishlari qiyinroq kechadi. Shuning uchun bunday bolalar, o'zlarini ijtimoiy muhitda tasdiqlash uchun ular ko'pincha kuch va tajovuzdan foydalanadilar. Agar bunday bolalarga o'z

² J.B.Mingaboyeva. "O'zbekistonda ijtimoiy yetimlik holatlari tahlili" ilmiy maqola. 2023 yil.

vaqtida yordam berilmasa, ular kelgusida o'z oilasini yaratish va bolalarini tarbiyalashda ham bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilalarga jalb qilish, oiladagi tarbiya va uning samaradorligini shuningdek bolalarni ijtimoiy himoya qilish muassasalari faoliyatini baholash, bunday bolalar bilan amaliy ish olib borayotgan mutaxassislarning salohiyatini oshirib borish juda zarur sanaladi. Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan, bolalar bilan ishlashda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi.

- tibbiy yordam;
- ijtimoiy-yuridik maslahatlar;
- kasbiy yo'naltirish;
- ijtimoiy-psixologik konstalting;
- ijtimoiy-psixologik yordam;

Yuqoridagi yordamlarni, tizimli va izchil amalga oshirish bu toifa bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida 3 ta asosiy vazifani hal etadi.

- 1.Moslashtirish;
- 2.Avtomatlashtirish (kasbga oid);
- 3.Shaxsiyatni faollashtirish;

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining barcha yo'nalishlariga nazar nolsak, ular orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan ishlash, keng qamrovli ekanligi bilinadi. O'zbekistonda umumiy bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini uzoq muddatli, isloh qilish bo'yicha takliflarni muhokama qilish uchun davlat va nodavlat tashkilotlari vakillari va xalqaro ekspertlar, ishtirokida bir qator davra suhbatlari bo'lib o'tmoqda. Bunday suhbatlar, "Oila" markazi va UNISEF tomonidan birgalikdagi olib borilayotgan ishlar tizimi negizida amalga oshirilmoqda. UNISEF tadqiqotchilari, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar bilan ishlash uchun ijtimoiy xodim kasbini ilgari surish va bunday xodimlar salohiyatini oshirish, kerakligini takidlaydi. Ijtimoiy ish xodimi, bunday bolalar bilan ko'mpleks ishlash jarayonlariga ahamiyat qaratishi lozim bo'ladi. Bu borada bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha, normativ hujjatlarni bilishi va mavridida bu hujjatlardan amalda bolalar himoyasi uchun foydalana olishli kerak bo'ladi. Yangi O'zbekistonda, har bir bolaning barcha huquqlarini ta'mimlash ustuvor vazifa bo'lib bormoqda. Milliy huquqiy tizimida, bola huquqlariga oid Qonunlar alohida o'rin tutadi. Bu haqida fikr yuritilganda, so'nggi yillarda milliy qonunchiligimizda bola huquqlari bilan bog'liq bo'lgan, qonuniy hujjatlar soni 40 dan, qonunosti hujjatlar soni esa 500 dan ortiqni tashkil etmoqda.

Bola huquqlari deganda- irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har bir bola

ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklar tushuniladi. Xalqaro huquq normalarida 18 yoshga yetmaganlarning barchasi bola deb tan olingan. Yangi qabul qilingan, Konstitutsiyamizning XIV BOB "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlandi³. Ushbu BOB dagi moddalarda, bolalarning huquqlari va burchlari aks etgani kelajakda ularni himoya qilishga xizmat qiladi. Xususan Konstitutsiyamizning 77, 78, 79, 80 – moddalarida bolalarning huquqlari va manfaatlariga xizmat qiladigan normalar kiritilgan. Masalan, 77-moddada Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishlari, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanliklari belgilangan⁴. Bu normaning mohiyati, bolalarni qarovsiz qolib ketmasliklarini taminlaydi. Biroq yurtimizda ham bolalarni qarovsiz qoldirish holatlari, hamda ulaga zo'ravonlik qilishlar ham uchramoqda. Hozirgi kunda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili Bolalar Ombudsmani tashkil etilib, ushbu institut tomonidan bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yich keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bolalar Ombudsmani tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning 78 foizi begonalar, 14 foizi ota-onalar, 8 foizi esa qarindoshlar va tanishlar tomonidan sodir etilmoqda. 2023 yilning 9 oyida bolalarga nisbatan 1240 ta zo'ravonlik holatlari qayd etilgan⁵. Zo'ravonlik oqibatida 22 ta bolalar, og'ir shikastlanganlar. Bu ko'rsatkichlar albatta ayanchli. Bunday holatlarni oldini olish uchun eng avvalo aholi yani oilalar bilan amaliy ishlarni olib borishimiz lozim. Zo'ravonlik mohiyatini ommaga tushuntirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro hujjatlarga yuzlanadigan bo'lsak, 1989 yil 20 noyabirda BMT tomonidan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. Konvensiya 1956 yilda qabul qilingan Bola huquqlari Deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantirdi. Deklaratsiyada, "Insoniyat o'zida mavjud bo'lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur", deyilgan maqsadga asoslangan edi. O'zbekiston Respublikasi uchun ham, bolalarning himoyasiga oid qonuniy hujjatlarning bazasi kerak edi. Shu asnoda, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-139-sonliy rasmiy hujjat qabul qilindi. Bugungi kunga kelib bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimidagi, asosiy manba deb ayta olamiz bu qonuni. Bola huquqlari kafolatlarning qonunchilik asoslari bo'lgan Oila Kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, "Bolalar va ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi va boshqa shu kabi.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil. Lex.uz.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil. Len.uz.

⁵ www.gazeta.uz.oz. rasmiy sayitidan olindi. 2023 yil.

Qonunlar bugungi kunda ijtimoiy yordamga muhtoj bolalrimizga yordam berish uchun dastur bo'lib, xizmat qilmoqda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni to'liq ijtimoiy moslashuvini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yildagi 287-son "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorini tasdiqladi.

Markazning missiyasi- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari (nogironligi bo'lgan bolalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar va ijtimoiy-huquqiy xavf guruhidagi bolalar)ga, har tomonlama tibbiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik va konsultativ-huquqiy yordam ko'rsatishni qamrab oladi.

Markazning asoasiy vazifalari quydagilarni qamrab oladi.

- Bolalarning ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalariga nisbatan qonunlarni takomillashtirish;

- Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida idoraviy hamkorlik va sherikchilik mexanizmlarini optimallashtirish;

- Og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar va bolalar bilan ishlashda davlat organlari va jamoat tashkilotlari resurslaridan foydalanish;

- Bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi mutaxassislarni, amaliyotga yo'naltirish va bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning innavatsion yondashuvlarini joriy etish;

- Bolalarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari va ularning oilalariga har tomonlama ya'ni psixologik-pedagogik, ijtimoiy-tibbiy, huquqiy axborot va ma'rifiy yordam ko'rsatish;

- Bolalarning zaif guruhlari, uchun muqobil turar joy shakllarini tashkil etish;

- Bolalarning ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlari va ularning oilalari bilan ijtimoiy xizmatlar uchun innavatsion texnologiyalarni ishlab chiqish;

- Iqtidorli bolalarni, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish;

- Ijtimoiy yetimlik xavfini kamaytirish va bolalarni rivojlantirish maqsadida oilalar va bolalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish;

- Ijtimoiy va huquqiy xavf guruhidagi bolalar bilan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va profilaktik ishlarni olib borish;

- Ijtimoiy-huquqiy xavf guruhidagi bolalarning ijtimoiy moslashuvini, qayta ijtimoiylashuvini va jamiyatga integratsiyalanashuvi mexanizmlarini ishlab chiqish;

- Uzluksiz ta'lim tizimiga inklyuziv ta'limni ta'minlash va uning ilmiy-uslubiy asoslarini rivojlantirishga ko'maklashish;

-Alohida ehtiyojli bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish va bolalarni nogiron bo'lib qolishlarini oldini olish maqsadida sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy himoya tizimida, erta yordam xizmatlarini tashkil etishni qamrab oladi.

O'zbekistonda, ijtimoiy jihatdan alohida e'tiborga muhtoj bolalarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni muhokama qilishga bag'ishlangan, Xalqaro Konferensiya 2018 yil Toshkentda o'tkazilgan edi. Bo'lib o'tgan bu Xalqaro Konferensiyada YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi mutaxassislari, xalqaro ekspertlar, bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha xodimlar ishtirok etishgan. Ikki kunlik konferensiyada ishtirokchilar, qiyin hayotiy vaziyatda qolgan, jumladan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda qonun bilan ziddiyatdagi bolalarni himoya qilish masalalari muhokama qilingan edi. "Dunyodagi har bir mamlakat zaif oilalarni va bolalarni aniqlay oladigan, ularning ehtiyojlarini qondiradigan ijtimoiy xizmatlarni ta'minlaydigan va bu xizmatlarni taqdim etishni muvofiqlashtirish va nazorat qilishga qadar bo'lgan bolalarni himoya qilishning kuchli tizimiga sarmoya kiritishi kerak" dega edi YUNISEFning O'zbekistondagi rahbari Sosha Graumann. Shu asnoda yurtimizda, ijtimoiy sohaga alohida tizimli e'tibor kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axoliga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁶, PQ-319-son, asosida 2023 yil 15 oktabiridan boshlab, dastlab 28 ta tuman, shaharda eksperiment tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va viloyatlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishning yangicha, tizimi yaratildi. Tashkil etilgan agentlikda, Bolalarni ijtimoiy himoya qilish sho'basi ham mavjud. Bu sho'bada, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yordam ko'rsatiladi. Vasiylik va homiylik masalalari ham ushbu sho'bada hal etiladi. Farzandlikka olish, ota-ona qaramogisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha, amaliy ishlarni aynan bu sho'ba ko'rib chiqadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, bolalar uchun muqobil yordam turlarini tashkil etadi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni himoya qilishda vasiylik va homiylik alohida o'rin tutadi. Bu soha bo'yicha yurtimizda 02.01.2014 yil, "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'RQ-364-son rasmiy manba, ijtimoiy ish xodimi uchun amaliy jarayonlarda yordam beradi. Qonun 9 BOB, 50 moddadan iborat.

1 BOB. Umumiy qoidalar (1-6- moddalarni) qamrab oladi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axoliga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-319-son, 2023 yil. Lex.uz.

2 BOB. Vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari hamda ularning vakolatlari haqida bo'lib, (7-13-moddalarni) qamrab olgan.

3 BOB. Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar va ularning mol-mulki to'g'risida bo'lib, (15-18-moddalarni) qamrab oladi.

4 BOB. Vasiylik va homiylikni belgilash. Vasiy yoki homiy tayinlash bo'lib, (19-27-moddalarni) qamrab oladi.

5 BOB. Vasiylikni va homiylikni tugatish. Vasiyning va homiyning o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilish hamda chetlashtirish, (28-30-moddalarni) qamrab oladi.

6 BOB. Vasiy va homiyning huquqi va majburiyatlari, (31-33-moddalarni) qamrab oladi.

7 BOB. Vasiylikdagi va homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish, (34-40-moddalarni) qamrab oladi.

8 BOB. Vasiylik va homiylik sohasidagi nazorat haqida bo'lib, (41-46-moddalarni) qamrab oladi.

9 BOB. Yakunlovchi qoidalar, (47-50-moddalarni) qamrab oladi.

Qonunda belgilangan tartibda vasiylik va homiylik mohiyati quydagilarni aks etadi.

Vasiylik- 14 yoshga to'lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomilaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli⁷.

Homiylik- 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomila layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli sanaladi⁸. Qonunning 5-moddasida, vasiylik va homiylik sohasidagi asosiy prinsiplar bayon etilgan. Ular quydagilarni qamrab oladi.

-Qonuniylik;

-Insonparavarlik va mehr-shafqat;

-Vasiylik va homiylik masalalarida individual yondashuv;

-Bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligi;

-Vasiylik va homiylikka oid majburiyatlarni qabul qilishni va rad etishni ixtiyoriyligi;

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni 364-son. 02.01.2014 yil. Lex.uz.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni 364-son. 02.01.2014 yil. Lex.uz.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning shakllari quydagilarni qamrab oladi.

1. Vasiylik va homiylikka berish.
2. Bolalarni farzandlikka berish.
3. Oilalarga tarbiyaga olish (patronat).
4. Ixtisoslashtirilgan tarbiya, davolash muassalariga, ijtimoiy himoya muassalariga joylashtirish.

Mamlakatimizda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bir hisoblanadi. Bugungi kunda, bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida qonuniy asoslar yaratilgan. Biroq og'ir hayotiy vaziyatga tushgan bolalar bilan ishlash uchun ularning ruhiy holatlarini ham o'rganish zarur sanaladi. Birgina qonuniy normativlar bilan ulsni ijtimoiy holatlarini o'zgartirish mumkin bo'lar, lekin bunday toifa bolarning ruhiy va ma'naviy o'zgarishlari uchun ham amaliy ishlar juda zarur sanaladi. O'g'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari bo'lishi sir emas. Ularga to'g'ri yo'nalish berilmas ekan o'z yo'llaridan chetga chiqib ketishlari mumkin. Shuning uchun ham ijtimoiy o'zgarishlar davrida, o'g'ir hayotiy vaziyatga tushgan bolalar bilan ishlashda, ko'mpleks yondashuvlarni amalga oshirilsagina ijobiy natijalarni olish mumkin.

Xulosa: Jamiyatni bolalar tashkil etadi. Ularning qaynchalik meyoriy yaxshi muhitda o'sib-ulg'ayishlari, keying ijtimoiylashuvlariga ham ijobiy tarzda bo'liq bo'ladi. Barcha bolalarga e'tibor juda muhim sanaladi. Chunki ayni shu davirda ular himoyaga muhtoj bo'ladilar. Mustaqil tadqiqotchi, sifatida o'zim yashab turgan viloyatni va ayrim tumanni o'ranib chiqishim davomida quydagi raqamlarga duch keldim. Bugungi kunda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan soni Farg'ona shahri bo'yicha 242 tani tashkil etmoqda. Toshloq tumanida bunday bolalar soni 158 tani tashkil etmoqda. Ulardan 85 tasi qizlar, 73 tasi o'g'il bolalar. Shulardan vasiylikka 88 ta bola qamrab olingan. Homiylikka esa 70 ta yoshlar qmrab olingan. Bugungi kunda, bolalar va yoshlar bilan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot jarayonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi Farg'ona viloyati Toshloq tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi Bolalarni ijtimoiy himoya qilish sho'basi, ish faoliyatini o'rgandim. Tadqiqot jarayonida, vasiylikka va homiylikka olingan yoshlarning ijtimoiy holatlarini o'rgandim. Vasiylik belgilashda Sud jarayonlarida qatnashdim. Toshloq tumanida mavjuda bo'lgan "Oilaviy bolalar uyi"ni borib o'rganishga erishdim. Mavjuda vaziyatlarni baholay oldim. Shu jarayonda, homiylikka olingan yoshlarga seminar tashkil etib, ulardan ijtimoiy so'rovnoma oldim.

Tashkil etilgan seminarda, 9-10-11-sinf o'quvchilaridan jami 14 nafar yoshlar qatnashdilar. Ijtimoiy so'rovnoma orqali quydagi savollarga javoblar olindi.

-Siz Oliy o'quv yurtiga kirishni xohlaysizmi yoki hunar olish sizga ko'proq yoqadimi?

-Siz uchun yaratib berilayotgan yordam turlaridan qoniqasizmi?

-Nechta xorijiy tilni bilasiz yoki hozirda qaysi til kursaliga bormoqdasiz?

-Siz uchun qaysi sohalarida yana qanday imtiyozlar bo'lishini istaysiz?

-Maktab ta'limi sizni qoniqtiradimi?

Seminarda qatnashgan yoshlardan quydagicha javoblarni oldim. 11 nafar yoshlar Oliy o'quv yurtiga kiraman deb yozganlar, 3 nafar qatnashchi hunar olish istagi borligini bildirganlar. Ular uchun yaratilgan imkoniyatlar haqidagi savolga 10 nafar yoshlar qoniqaman deb javob berganlar, 2 nafar yoshlar yo'q, yana 2 nafar yoshlar esa qisman va o'rtacha deb javob berganlar. 9 nafar yoshlar xorijiy til (ingiliz tili, rus tili va turk tili) kurslariga borishlarini yozganlar, 5 nafar yoshlar esa xorijiy tillarga qiziqmasliklarini yozganlar. Siz uchun qanday yordam turlari yaratilishini istaysiz savoliga deyarli yoshlar javob yozmaganlar. Maktab ta'limi haqidagi savolga esa 13 nafar yoshlar yaxshi deb yozganlar, 1 nafar qatnashuvchi esa yo'q deb javob yozganlar. Bu tadqiqotda suhbat, kuzatuv, baholash va ijtimoiy so'rovnoma metodlaridan foydalanildi.

Aytib o'tish mumkin, XX asrning ikkinchi yarimi va XXI asr boshida dunyo miqiyosida sodir bo'layotgan globallashtirish, modernizatsiyalashuv kabi jarayonlar nafaqat ijtimoiy-moliyaviy balki, ijtimoiy-ma'naviy hamda ahloqiy qoida va qadriyatlarini parchalashga sabab bo'lmoqda. O'z o'zidan bunday vaziyatlar, jamiyatdagi ojiz qatlamlar taqdirida izsiz ketmaydigan holatlarga olib keladi. Jamiyatda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga o'z o'rnida va kerakli yordamni vaqtda ko'rsata olishimiz kerak. Shunday ekan ular xavf guruhiga tushib qolmaydilar. Jamiyatdagi salbiy ijtimoiy holatni, bartaraf etmaslik keying kottaroq muammolarga zamin ochishi mumkin. Shunday ekan bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasi haqida gap ketganda, oilalarni mustahkamlashga urg'u berish zarur. Bo'lajak yosh ota-onalar uchun ota-onalik maktablarini tashkil etish, farzand tarbiyalashdagi mas'uliyat hissini oshirish kerak. Bunday amaliy ishlar o'zining ijobiy natijasini beradi.

Xususan, bolalarni ijtimoiy himoya qilish davlat muassasalarida ijtimoiy ish yo'nalishini tugatgan mutaxassislarini ishga olinishi ham eng keraklisi deb ayta olaman. Buni tadqiqot natijalari ham isbotlab berdi. Bolalarga yordam ko'rsatish, yuzaki ishlaganlar uchun emas, aksincha bolalarni qalban, ruhan his qilib yordam berishga tayyor insonlar uchun. Ijtimoiy himoyaga muhtoj

bolalarga, yordam berish raqamlarda bo'lmashligi kerak. Bunda inson omili bilan ishlashni tushunish kerak. Shundagina natijalar ijobiy bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Rasmiy manbalar va O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Lex.uz. 2023 yil.
2. BMT "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi 139-son Qonuni. 2008 yil Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi 364-son Qonuni. 2014 yil. Lex. uz.

II. ASOSIY ADABIYOTLAR:

5. Abduraxmonova M.M. Alekseyeva V.S. Latipova N.M. Akromov D.O. "Yordamga muhtoj bolalar bilan ijtimoiy ish". Farg'ona 2021 yil.
6. "Aholining turli guruhlari bilan ijtimoiy ish amaliyoti" Davriy to'plam 3-qism. Toshkent 2019 yil.
7. "Bolalar bilan ijtimoiy ish" Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2016 yil.
8. Xuliniva G.N. Bozorova R.A. "Bolalarga nisbatn shavfqatsiz munosabat belgilarini aniqlash va yordam ko'rsatish usullari". Toshkent 2021 yil.
9. Xoshimova M. "Bola tarbiyasiga ijtimoiy nazar, bola o'zligini nuqsonlarsiz shakllantirish". Ilmiy maqola 2023 yil.

II. INTERNET SAYITLARI:

III.

10. Lex. uz.
 11. www.gazeta.uz/or/.
 12. [htt://soc.vork.ru/public/35-1-0-52](http://soc.vork.ru/public/35-1-0-52).
- Allohimga ming shukur.